

QASHQADARYO VILOYATI 2010-2024 YILLARDAGI TARMOQLARNING YALPI QO'SHILGAN QIYMATINI TREND MODELLAR YORDAMIDA PROGNOZLASH

Abdushukurova Sevinch Akramjonovna

Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti.

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi 2-kurs talabasi


Rashidova Xadicha Tursunaliyevna

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15800396>

2010 yildan 2024 yilgacha Qashqadaryo viloyatining tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymati (YQQ) ancha sezilarli o'sish ko'rsatdi. 2010 yilda bu ko'rsatkich 6 588,0 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilga kelib 78 033,6 milliard so'mga yetdi. Bu davrda YQQ ko'rsatkichining o'rtacha yillik o'sish sur'ati taxminan 11,6% ni tashkil qiladi. O'sishning eng yuqori sur'ati 2020-2024 yillar orasida kuzatilgan bo'lib, bu davrda YQQ taxminan ikki baravar oshgan (39 505,4 milliard so'mdan 78 033,6 milliard so'mgacha). 2010-2019 yillar o'rtasida o'sish barqaror bo'lgan bo'lsa, 2020 yildan so'ng bu jarayon yanada tezlashdi. Bunda iqtisodiy strategiyalardagi o'zgarishlar, yangi loyihalar va investitsiyalarning ko'payishi, shuningdek, pandemiya davrida davlatning iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlari ham katta rol o'ynagan bo'lishi mumkin.

Tarmoqlarning yalpi qoshilgan qiymati (YQQ) ning oshishi Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy o'sishining muhim indikatoridir va uning iqtisodiy diversifikatsiyasini aks ettiradi. 2020 yil va undan keyingi yillarda kuzatilgan o'sish viloyatning iqtisodiy strategiyalarining samaradorligini ko'rsatadi. Bu davrda, viloyatda sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohalariga qaratilgan investitsiyalarni oshirish va yangi tarmoqlarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. 2024 yilga kelib, viloyatning yalpi qo'shilgan qiymati 78 033,6 milliard so'mga yetdi, bu o'z navbatida iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga o'tishni bildiradi. Kelgusi yillarda tarmoqlarning diversifikatsiyasini davom ettirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va investitsiyalarni jalb qilish orqali bu o'sishni davom ettirish imkoniyatlari mavjud (1-rasm).



1-rasm. 2010 yildan 2024 yilgacha Qashqadaryo viloyati tarmoqlarining yalpi qo'shilgan qiymati.¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tasviriy statistika²

Korsatkich nomi	Qiymati
O`rtacha	30744,57333
Ctandart hatolik	5791,036384
Mediana	24160,2
Moda	#H/Д
Ctandart chetlanish	22428,58747
Tanlama dispersiya	503041536
Ekstess	-0,23469828
Asimetriya	0,885059075
Interval	71445,6
Minimum	6588
Maksimum	78033,6
Summa	461168,6
Hisob	15

Qashqadaryo viloyatining 2010–2024 yillar oralig'ida tarmoqlar bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymati (YQQ)ga oid tasviriy statistik ma'lumotlar 1-jadvalda o'z aksini topgan. O'rtacha qiymat 30 744,57 so'mni tashkil etib, bu viloyatdagi iqtisodiy faoliyatning umumiy darajasini ko'rsatadi. Mediana 24 160,2 so'm bo'lib, bu YQQ taqsimotining markaziy nuqtasini bildiradi va o'rtacha qiymatdan past bo'lishi natijalarning notekis taqsimlanganidan dalolat beradi. Bu shuni anglatadiki, ayrim yillarda yoki tarmoqlarda juda yuqori qiymatlar mavjud bo'lib, ular umumiy o'rtachani yuqoriga ko'targan. Moda qiymatining mavjud emasligi (H/Д) esa YQQ ko'rsatkichlari orasida ayniqsa ko'p uchraydigan biror qiymat bo'lmaganini bildiradi.

Tarqalish va taqsimot ko'rsatkichlari bu davr mobaynida iqtisodiy faoliyatda sezilarli farqlar mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Standart chetlanish 22 428,59 so'm, tanlama dispersiyasi esa 503 041 536 so'mni tashkil etgan bo'lib, bu qiymatlar tarmoqlar bo'yicha YQQning o'zgaruvchanligi yuqoriligini bildiradi. Asimetriya ko'rsatkichi 0,89 bo'lib, taqsimotning o'ngga og'ganini anglatadi, ya'ni ayrim yillarda yuqori qiymatlar ustunlik qilgan. Ekstess ko'rsatkichi - 0,23 bo'lib, taqsimot biroz yassi shaklda bo'lganini va juda yuqori yoki past qiymatlar kam uchraganini bildiradi. YQQning maksimal qiymati 78 033,6 so'm, minimal qiymati esa 6 588 so'm bo'lib, ularning orasidagi farq 71 445,6 so'mni tashkil qiladi. Bu katta tafovut iqtisodiy faollikda keskin o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatadi. Umumiy yig'indi - 461 168,6 so'm, jami 15 yillik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

2-jadval

Model turlari³

Model nomi	Tenglamasi	Dererminatsiya koeffitsienti
Ekspontensial	$y = 5807,4e^{0,1748t}$	$R^2 = 0,9988$
Polinom	$y = 375,61t^2 - 1214,7t + 9411,8$	$R^2 = 0,9968$
Chiziqli	$y = 4795t - 7615,6$	$R^2 = 0,9141$
Darajali	$y = 4052,8t^{0,9454}$	$R^2 = 0,8929$

Yuqoridagi jadvaldan korinib turibdiki, eng katta determinatsiya koeffitsientiga ega model eksponensial modeli hisoblanadi. bu modeldan foydalanib 2027 yilga qadar prognoz ishlab chiqildi.

3-jadval

Prognoz⁴

Yillar	Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati (mlrd so`mda)
2025	95 183,3
2026	113 370,8
2027	135 034,9

Qashqadaryo viloyatida 2024 yilda tarmoqlar bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat (YQQ) 78 033,6 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu viloyat iqtisodiyotida sezilarli o'sishni anglatadi, ayniqsa avvalgi yillarning o'rtacha ko'rsatkichlari (masalan, 2010–2024 yillarda o'rtacha YQQ 30 744,6 mlrd so'm bo'lgan) bilan solishtirganda. 2025 yilga mo'ljallangan prognozga ko'ra, YQQ 95 183,3 mlrd so'mga yetishi kutilmoqda, bu esa 2024 yilga nisbatan taxminan 22% o'sishni anglatadi. Bu kabi o'sish tendensiyasi iqtisodiy faollikning kengayayotganini, investitsiyalar va ishlab chiqarish samaradorligining ortib borayotganini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda ham o'sish sur'ati saqlanib qolmoqda: 2026 yilda YQQ 113 370,8 mlrd so'mga, 2027 yilda esa 135 034,9 mlrd so'mga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu o'zgarishlar yilma-yil o'rtacha 20-22% atrofida barqaror o'sishni anglatadi. Ushbu holat tarmoqlarni modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirish orqali amalga oshayotgan bo'lishi mumkin. Bunday prognozlar viloyatning iqtisodiy strategiyasi to'g'ri yo'nalishda ekanini ko'rsatadi va yaqin yillarda iqtisodiy barqarorlik bilan birga aholining daromadlarida ham sezilarli o'sish bo'lishi kutiladi.

³ Muallif ishlanmasi

⁴ Muallif ishlanmasi

REFERENCES

1. M.K. Tuychiyeva, B.E. Turayev trend modellari yordamida elektron tijorat aylanmasi hajmini modellashtirish va prognozlashtirish. Technical science research in Uzbekistan, Volume-2, Issue-2, 2024.\\
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti <https://stat.uz/uz/>